O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2023 - yil 11 - oktabr 303-9-0-Q/23 Sirdaryo viloyati hokimligi

Jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga yer uchastkasi ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2023-yil 25-iyuldagi 02-RA 1/1-1011-sonli topshirig‘iga asosan, “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etish bo‘yicha Respublika shtabining joriy yil 5-avgustdagi bayoni (2023-yil 7-avgustdagi 07-1533-sonli ko‘rsatma xati)ga muvofiq, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy Reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 543-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”ning 5 va 20-moddalari hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 10 va 25-moddalariga asoslanib **qaror qilaman:**

1. Boyovut tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining 2023-yil 16-avgustdagi 21/05-02/15-267-sonli xati qanoatlantirilsin hamda viloyatdagi tegishli tashkilot va korxonalarning ijobiy xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Boyovut tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga tumandagi “Tinchlik” mahalla fuqarolar yig‘iniga “Mahalla fuqarolar yig‘ini” binosini qurish uchun “N.Maxmudov” massivi qishloq xo‘jaligi xaritasining 82q-konturidan tuman hokimligi zaxirasidagi ijtimoiy hovli va maydonlar bilan band bo‘lgan yerlardan 20 metrga x 20 metr o‘lchamda 0,04 gektar A1724212023/2-raqamli yer uchastkasi jamoat ehtiyojlari uchun doimiy

foydalanishga ajratilsin.

3. Boyovut tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (K.Xudoyberdiev)ga:

ajratilgan yer uchastkasida qurilishi rejalashtirilgan “Mahalla fuqarolar yig‘ini” binosini qurish uchun belgilangan tartibda loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqib, ekspertizadan o‘tkazish hamda qurilish ishlarini o‘z muddatida amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qarorining 31-bandi talablari asosida Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi hamda “O‘zGAShKLITI” DUK loyiha-qidiruv tashkiloti filiali bilan birgalikda “Mahalla fuqarolar yig‘ini” binosini qurish uchun ajratilgan yer uchastkasi chegaralarini joyida (naturada) belgilanishini ta’minlash va yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish majburiyatlari yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasi (B.Minasipov) yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin hamda viloyat yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari R.Boboyev, V.Ibadullayev zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi **A.Maxmudaliyev**